



# Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:  
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and  
Trends in Educational Sciences  
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

## THE PERIOD OF LEADERSHIP OF THE MAKAM ENSEMBLE OF ISRAILJON VAKHABOV

Shokhrukh Azizkulovich Rabimkulov<sup>1</sup>

*Scientific-Research Institute of Culturology and Intangible Cultural Heritage*

### KEYWORDS

Israiljon Vakhobov, maqam, art, teacher-student, Maqam ensemble, school, traditional singing

### ABSTRACT

This article covers the creative activities of the people's staff of Uzbekistan, the Uzbek maqam performer and master of maqom art, Israiljon Vakhobov. Who led the Maqam ensemble for several years, and the work carried out during the leadership of the Maqam ensemble. In particular, it examines the unique aspects of his school of students and his contributions to the development and preservation of maqam art, presented from a scholarly perspective.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.13324103](https://doi.org/10.5281/zenodo.13324103)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

<sup>1</sup> Head of the Department of the Scientific-Research Institute of Culturology and Intangible Cultural Heritage, Uzbekistan

# ISROILJON VAHOBOV MAQOM ANSAMBLIGA RAHBARLIK DAVRI

**KALIT SO'ZLAR/****КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

Isroiljon Vahobov, maqom, san'at, maqom ansambl, ustoz-shogird, maktab, an'anaviy honandalik

## ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada O'zbekiston xalq hofizi, bir necha yillar maqom ansambiliga rahbarlik qilgan ustoz san'atkor Isroiljon Vahobov xayoti va maqom ansambiligi rahbarlik qilgan davrida amalga oshirilgan ishlar ijodiy faoliyati yoritilgan. Xususan, o'ziga xos ustoz-shogird maktabi va maqom san'atini rivojlantirish hamda saqlash yo'lida qilgan xizmatlari ilmiy talqin qilingan.

Millatimizning dohiyona ijod mahsuli hisoblangan maqom san'ati bir necha asrlardan beri shakllanib, o'zining maftunkorligi, rang-barangligi, ohangdorligi va boy badiiyati bilan jahon xalqlarini lol qoldirib kelmoqda.

Isroiljon Vahobov 1975-yildan 1992-yilgacha maqom ansamblida faoliyat olib borgan. Uning iste'dodi va mumtoz musiqa merosiga bo'lgan muhabbat, ustozlarning benazir sabog'ini olishga asos bo'ldi. Maqom ansamblining ustozlari Orif Alimaxsumov, Ochilxon Otaxonov, Fattohxon Mamadaliyev, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova kabi ustozlardan maqom ijrochilik an'anasini o'zlashtiradi. Maqom merosining namunalarini qunt bilan o'rghanadi. Ustozlar bilan bir qatorda ijro etib ijrochilik mahoratini oshiradi. Bir qator Shashmaqom namunalari va bastakorlar asarlarini ansambl hamda Ismoiljon Vahobov bilan birgalikda magnit tasmalariga muhrraydi.

Maqomlarni ustozlar ko'rsatmasiga asosan mukammal o'rgangan Isroiljon Vahobov 1996-yilning noyabr oyidan boshlab ushbu jamoaga rahbar etib tayinlanadi. Ansamblga rahbarlik qilish va ustozlarning an'anasini munosib davom ettirish darhaqiqat mushkul. Lekin, maqom ijrochilik an'analarini ustozlardan munosib o'rgangan Isroiljon Vahobovni musiqiy merosga azaliy an'analar negizida yondashishga va zamon talqinida munosabatda bo'lishga undadi. Bu borada u ansamblida tinmay izlanish, yuksak did, xolis niyatlar og'ushida faoliyat olib bordi. Jamoada kam aytilgan namunalar va unutilib borayotgan ijro yo'llarini tiklashga harakat qildi. Jamoa bilan birgalikda o'rghanib, asl holida tiklash yo'lida ko'p izlandi. Natijada ansambl xonandalari va sozandalari talqinida radio fondiga yozib qoldirishga tuyassar bo'ldi. Jumladan:

Buzruk maqomidan - "Savti ushshoq talqinchasi", "Talqini ushshoq", "Soqinomai savti ushshoq", "Daromadi ushshoq", "Ufori savti ushshoq";

Navo maqomidan - "Mustahzodi Navo", "Tasnifi navo", "Talqinchai mustaxzodi Navo", "Xusayniy Navo", "Orazi navo taronalari", "Garduni Navo", "Savti navo", "Savti navo soqinomasi", "Tasnifi Navo", "Mo'g'ilchai Navo";

Dugoh maqomidan - "Nasri bayot", "Chapandozi bayot", "Samandari dugoh", "Tasnifi dugoh", "Garduni dugoh", "Chorgoh 3", "Orazi dugoh", "Talqinchai mug'ilchai dugoh", "mug'ilchai dugoh uforisi", "Ufori chorgoh";

Segoh maqomidan - "Qashqarchai mug'ilchai segoh", "Nimcho'poni", "Nasri segoh taronasi", "mug'ilchai segoh", "Talqinchai mug'ilchai segoh", "Garduni segoh", "Nasri segoh", "Talqini segoh", "Talqini segoh taronasi", "Navro'zi xoro", "Qashqarchai mug'ilchai segoh", "Muhammasi segoh", "Saraxbori segoh", "Saqili basta nigor", "Nasri segoh", "Segoh";

Iraq maqomidan - Muxayyari Iraq;

Toshkent-Farg'ona maqom yo'llaridan – "Begi Sulton", "Chapandozi Gulyor", "Gulyori Shahnoz", "Dugoh Xusayniy", "Saqili Vazmin", "Abdurahmonbegi", "Farg'onacha Shahnoz".

Olib borilgan mehnatining ushbu namunalari televide niya orqali rang-barang ko'rsatuvlarda namoyish etildi. Bu esa Toshkent Farg'ona yo'lidagi mumtoz taronalar, yallalar, katta ashulalar va bastakorlarning yaratgan asarlarini o'rganishdek sharaflı ishlarga keng yo'l ochildi. "Savti navo", "Orazi Dugoh" "Muxayyari Iraq" "Saqili Bastanigor" "Iraq qashqarchasi" kabi asarlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Respublika maqomchilar ko'rik-tanlovlariga bosh-qosh bo'lish, qayta ashula yo'llarini va uslublarini keng yoritish, ustoz san'atkorlar va mashhur jamoat arboblari bilan uchrashuvlar, suhbatlar tashkil etish maqom san'atiga bo'lgan ixlosmand yoshlarni otaliqqa olish, teatr va san'at saroylarida katta konsertlar uyushtirish kabi ezgu ishlar amalga oshirildi.

Vatanimizda har yili bo'lib o'tadigan "Mustaqillik" va "Navro'z" bayramlarida, Festivallar va qator davlat tadbirlarida muntazam ishtirok etib keldi. Ansamblning fidoyi san'atkorlari Temur Mahmudov, Ahmadjon Dadayev, Matluba Dadaboyeva, Nabijon Ziyoyev, Nasiba Sattarova, Gulbaxor Erqulova, Maxmudjon Tojiboyev, Rahmatilla Samadov, Malika Ziyoyeva, Maxmudjon Yo'ldoshev, Abdulaxad Abdurashidov, va Ismoiljon Vahobovlar bilan birgalikda AQSH, Fransiya, Angliya, Olmoniya, Yaponiya, Italiya, Portugaliya, Avg'oniston, Hindiston, Pokiston, Eron kabi bir qator xorijiy mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'lib, maqomdek oltin merosimizni namoyish qilib, milliy musiqamizning durdona asarlarini chet ellarda targ'iboti olib borildi.

Maqom ansamblining 40 yilligi oldidan Xorazm, Andijon, Farg'ona, Namangan, Surxondaryo kabi viloyatlar bo'ylab ijodiy safarlar uyushtirilib, maqom san'ati xususida ijodiy uchrashuvlar, katta konsertlar namoyish etilishini ham maqom ansamblini ishtirokidagi ezgu ishlarga misol qilish mumkin. Buxoro va Xiva shaharlarining yubiley sanalarini nishonlashda maqom jamoasi, O'zbekiston san'at arboblari Mustafo Bafoev, Jo'ra Shukurov kabi ustoz ijodkorlar bilan ham ijodiy hamkorlik qilib, zamonaviy uslubda mumtoz asarlar yaratildi va film, konser tariqasida muxlislarga taqdim etildi. Alisher Navoiy nomidagi katta opera va balet teatrida, "Xalqlar do'stligi" va Turkiston san'at saroylarida "Nazm va navo", "Maqom kechasi, Rajabiyxonlik mavzularida konsertlar berilishini ham o'sha davrdagi maqom jamoasining mehnat faoliyatidagi qizg'in va sharaflı ishlari deb baholasak bo'ladi.

O'zbekiston xalq artistlari Kommuna Ismoilova, Berta Davidova kabi ustozlarning 70 va 75 yillik yubiley to'ylari ham fayzli, olqishlarga boy tarzda o'tganligi, Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov, Komiljon Otaniyozov, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Yunus Rajabiy kabi

san'atimiz darg'alari, maqom san'atining benazir ustozlari nomidagi maqomchilar Respublika ko'rik-tanlovlariida, "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivallarida muntazam ishtirok etishlari maqom jamoasining sharaflı ishlaridandir. Mumtoz musiqiy san'atimiz rivojida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamagan va yaqindan yordam bergen Kommuna Ismoilova, Berta Davidova, Hadya Yusupova, Turg'un Alimatov, Temur Mahmudov, Abdulhoshim Ismoilov, Orifxon Hotamov kabi faxriy ustozlar bilan yelkadosh bo'lib mehnat qilish ham biz uchun saodat, baxt va iftixor ekanligini ta'kidlab o'tish lozimdir.

Maqom jamoasining unutilmas ezgu ishlaridan biri ansamblning 40 yillik yubileyiga atalgan "Jahon kezar mumtoz" navolar deb nomlangan, "Telefilm" ijodkorlari tomonidan video tasvirga olingan film-konsertini tilga olish muhimdir. Bu film-konsertni tasvirga olish jarayonlari Samarqand, Buxoro kabi shaharlarda bo'lib, bevosita maqom jamoasining eng yaxshi ijro namunalari o'rinni olgan 45 daqiqali film-konsert barcha muxlislar va maqom ixlosmandlariga juda ma'qul bo'lganligini ham eslatib o'tish joizdir. "Maqom jamoasiga rahbarlik davrimda Eson Lutfullayev, Mahmudjon Yo'ldoshev, Mahmudjon Tojiboyev, Axmadjon Dadayev, Gulbahor Erqulova, Toxirjon Turg'unov, Malika Ziyoyeva, kabi fidoyi san'atkorlarimiz "O'zbekiston xalq hofizi" va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist – unvonlariga sazovor bo'lishdi. Radio va televidenya fondi uchun yozilgan maqom jamoasi xonandalari va sozandalari ijrosida magnit tasmaga tushirilgan asarlarning yangrash vaqtiga 1996-yil noyabrdan to 1999-yilgacha 64 soatdan oshiqroq jarangni tashkil etadi. Maqom ansambli tadbirlar, hukumat anjumanlarida, tijorat va xayriya konsertlarida o'z dasturlari bilan ishtirok etib kelgan.

O'zbekiston xalq hofizi Isroiljon Vahobov badiiy rahbarligi davrida quyidagi sozanda va xonandalar ansambl tarkibida faoliyat olib borganlar:

Xonandalar - Vahobov Ismoiljon, Lutfullayev Eson, Yo'ldoshev Mahmud, Tojiboyev Maximud, Tillaboyev Qodir, Saidov Abdumajid, Saidov Abdurashid, Niyozov Soyib, Ahmedov O'ktam, Olloberganov O'lmas, Do'stmurodov Beknazar, Dadaboyeva Matluba, Hasanova Mahbuba, Yorova Ozoda, Sattorova Nasiba, Erqulova Gulbahor, Bo'riyeva Komila;

Sozandalar - Maxmudov Temur – chang, Dadayev Ahmad – g'ijjak, Ziyoyev Nabi – ud, Ziyoyeva Malika – dutor, Samadov Raxmatilla – doira, Zulinov Sodiq – doira, Ho'jamberdiyev Erkin – nay, Abduazimov Ravshan – rubob, Abdullayev Sobir – Qonun, Aslonov Asror – tanbur, Bobonazarov Farkod – qo'shnay, Turg'unov Toxir – soz, Norqo'ziyev Murod – g'ijjak.

Ansamblning badiiy rahbar – Isroiljon Vahobov, musiqa rahbari – Temur Mahmudov.



Xalq hofizlari Ismoiljon va Isroiljon Vahobovlar